



**TURK XOQONLIGINI VA UNING O`RTA OSIYONING
YUKSALISHIDAGI O`RNI.**

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

3-bosqich talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o`g`li

E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com

Tel: +998 88 363 80 90

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`z davrining eng yirik davlati bo`lgan buyuk turk xoqonligini tashkil etilishi, uning O`rta Osiyoga harbiy yurishlari, sosoniylar bilan munosabatlari, Eftalilar bilan kurashlari va o`lkada ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayot haqida ma`lumot beriladi.

Kalit so`zlar:** **Ashin urug`I, Sosoniylar, Eftaliylar, Choch, G`arbiy Turk xoqonligi, Xoqon, To`n yabg`u, Bumin, Xisrav I, Istami.

O`rta asrlar davrining buyuk xalqlari bu turkiy qavmlar desak xato bo`lmaydi. Chunki milodiy asr boshlaridan to yangi davirgacha necha - necha buyuk davlatlar qurdilar, yer yuzini katta qismni vatan qilib yuksaltirib obod etilar. Qudratli turklarni faqat turklar o`zlari yengadi. Jumladan yirik kuch bo`lgan turkiy eftalilar davlatini ham turk davlar turk xoqonligi yengib o`rniga kelgan. VI - VII asrlarda o`rta osiyoda hukumronlik qilagan turk xoqonligi nihoyatda katta hududlarni egallagan edi. Bu davrda savdo - sotiq, ijtimoiy - iqtisodiy hayot gurkirab rivoj topdi. Hunarmanchilik, dehqonchilik, chorvachilik taraqqiy etdi.

Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi, Ashin, Arg`u, O`g`iz, To`qqiz o`g`iz, O`ttiz tatar, Qarluq, Qiton, Tolis, Turk, Uyg`ur, Quruqan, Duba va boshqalar yashardilar. VI asr boshlarida Oltoy o`lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi. O`sha paytda hozirgi





Mo'g'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi.

VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqei ko'tariladi. Ashin urug'iga mansub Asan va Tuu 460–545-yillarda boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoydagi turkiy qabilalar ittifoqiga asos soldilar. Tuuning o'g'li Bumin Tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551-yilda Jujan xonining qo'shinlarini yengib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Bumin 552-yilda xoqon deb e'lon qilinadi va yangi davlat — Turk xoqonligiga asos soladi.[6,b. 34].

Bumin oradan ko'p o'tmay vafot etgach, 553-yili uning o'rniga taxtga o'tirgan o'g'li Qora Issiqxoqon uzoq hukmdorlik qilmay, shu yilning o'zidayoq vafot etadi. Lekin u ham o'z hukmronligi davomida jujanlarga yanada bir bor qattiq zarba berishga ulguradi. Bumin xoqonning ikkinchi o'g'li Mug'anxoqon davrida ashinlar sulolasi “Koreya qo'ltig'idan G'arbiy dengizgacha, Xitoy devoridan Shimoliy dengizgacha” bo'lgan yerlarni o'z siyosiy boshqaruviga olish muvaffaq bo'lganlar. Mug'anxoqon xuddi otasi Bumin kabi ham siyosat, ham zo'ravonlik usullaridan ustalik bilan foydalangan. Chunonchi, eftaliylarga qarshi kurashda u, avvalo, ularning janubi-g'arbidagi dushmanlari sosoniylar bilan yaqin aloqalarga kirishadi.

Buning uchun Mug'anxoqon 554-yili Eronga elchi yuborib, ikki tomonlama ishonchni mustahkamlash yuzasidan Ashinabekani (Xayin) sosoniy Xisrav I ga turmushga berishini bildiradi. Shu yili Turk xoqonligiga yetib kelgan sosoniy elchilar ashinlilarni eftaliylarga qarshi kelishishga undaganlar. Taklif qabul qilinib, ittifoq quda-andachilik bilan mustahkamlangan: Xisrav I Ashinabekaga uylangan. Eftaliylar qarshiligiga qaramay, ashinlilar va sosoniylar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga putur yetmagan. Lekin bu yaqinlashuv vaqtinchalik edi. Zero, Mug'anxoqon eftaliylardan



so‘ng, albatta, sosoniylarni ham bir yoqli qilishni mo‘ljallab qo‘ygani aniq edi. Shunday bo‘lgan ham.[1, b. 111–112].

O‘sha davr siyosiy voqeligi nuqtayi nazaridan olganda, ashinlilarning Turkistonni zabt etishlari ehtimoli baland edi. Chunki so‘nggi yillarga kelib eftaliylar o‘z siyosiy faoliyatlarida zaiflashish yo‘liga kirgan va buni ular qo‘l ostidagi yerlarning sosoniylar va ashinlilar ixtiyoriga o‘tib borishidan ham bilsa bo‘ladi. Chunonchi, keyingi vaqtlarda Eron nafaqat yillik o‘lpon to‘lashdan bosh tortgan, balki 554-yili Toxaristonni bosib olgandi, ya‘ni eronliklarning ham Turkistonga da‘vogarliklari nihoyatda jiddiy edi. 555-yili esa ashinlilar Toshkent, Sirdaryo bo‘ylari, Xorazmni zabt etadilar. Boshqacha aytganda, eftaliylarning ertangi ahvoli ma‘lum bo‘lib qolgan. Bundan tashqari, Ashina sulolasi eftaliylar, sosoniylardan farqli o‘laroq, endi qudratga to‘lib kelayotgan yosh siyosiy kuch hisoblanardi. Shu bilan birga, eng muhimi, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo aloqalarining barqaror ravishda olib borilishini siyosiy jihatdan kafolatlovchi tomon bo‘lib ham Ashina sulolasi namoyandalari chiqishlari mumkin edi. Shuning uchun ham 565-yilgi ashinlilar va eftaliylar o‘rtasidagi asosiy jangda sug‘diyonaliklar betaraf bo‘lib turgan bo‘lsalar ajab emas. Chunki bu vaqtga kelib Vizantiya sustlik bilan bo‘lsa-da, o‘zida ipak yetishtirish ishini boshlab yuborgan hamda 564-yilgi ahdlashuvga binoan Mug‘anxon Vey-Chjou sulolasidan (537-yili, tilga olganimiz, Vey sulolasi hukmron hududning g‘arbiy qismida hokimiyatni qo‘lga kiritgan xonadon) o‘lpon sifatida yiliga 100 ming parcha ipak mato olishi kerak edi.

100 ming parcha ipak mato o‘z davri uchun juda katta hajm ekanligi qanchalik tabiiy bo‘lsa, bu “o‘lpon”ni G‘arbga olib borib sotib, foyda olish va bu sohada doimo birinchi bo‘lish sug‘diyonalik savdogarlar uchun tushunarli va eplasa bo‘ladigan tadbir edi.[2,b. 81–82.]

Turk xoqonligi 568–569-yillarda Vizantiya bilan bunday munosabatlarni o‘rnatish uchun Konstantinopolga Yusti II saroyiga elchi yuboradi. Konstantinopoldagi Yusti II saroyiga kelgan Turk xoqonligi elchilariga

yuqorida nomi tilga olingan sugʻd savdogari Maniax boshchilik qilardi. U Eron davlati chegaralarini chetlab, Kaspiy dengizining shimoli va Kavkaz orqali borishi kerak edi. Oʻz navbatida Vizantiya ham Zemarx boshchiligida Turk xoqonligiga javob tashrifi bilan elchilar yuborgandi. Muzokaralar davomida asosiy diqqat ipak savdosi va birgalashib Eronga qarshi kurash olib borish masalalariga qaratiladi.

Turk xoqonligi VI asrning 70–80-yillariga (588-yil) kelib, oʻz ichidagi ichki nizolar va Xitoydagi Suy imperiyasining aralashuvi natijasida ikkiga boʻlinib ketadi: Gʻarbiy va Sharqiy xoqonliklarga. Gʻarbiy Turk xoqonligi Sharqiy Turkistondan to Kaspiy dengizigacha choʻzilgan hududlarni oʻz ichiga olib, markazi Yettisuv edi. Sharqiy Turk xoqonligi esa Oʻrta Osiyo yerlarini oʻz ichiga olib, uning markazi Oltoyda joylashgan. VI asrning 70-yillarida Turk xoqonligi uchun juda qulay vaziyat vujudga keldi. Bu davrda Eron bilan Vizantiya oʻrtasida urush boshlandi. Turk xoqonligi bu paytda ancha kuchaygan edi.[8, b. 117 – 118].

Tarixshunoslikda “Gʻarbiy Turk xoqonligi” atamasi ostida 552–744-yillarda hukm surgan Buyuk Turk xoqonligining gʻarbiy qismi: Oltoy togʻlarining gʻarbidan to Shimoliy Qora dengizgacha, Volga–Ural boʻylaridan to Shimoliy Hindistongacha boʻlgan hududlarni oʻz ichiga olgan saltanat tushunilib, asosan xronologik jihatdan ikkita turkiy sulola – Ashina xonadoni (568–704/740) va Turgash xoqonligi (699–766) davri bilan belgilanadi. Aslida, xoqonlikni “Sharqiy Turk xoqonligi” yoki “Gʻarbiy Turk xoqonligi” tarzida atash oʻz davri manbalarida keng oʻrin olmagan. Asosan, xitoy yilnomalarida Turk xoqonligi *Dong Tu-jue* (“Sharqiy turklar”) va *Xi Tu-jue* (“Gʻarbiy turklar”) shaklida ikkita nom ostida beriladi. Shuningdek, yilnomalarda Gʻarbiy Turk xoqonligi “Oʻn qabila turklari” yoki “Yabgʻu turklari” kabi nomlar bilan ham qayd etiladi. VIII asr birinchi yarmiga taalluqli qadimgi turk bitiktoshlarida esa xoqonlikning gʻarbiy qismiga nisbatan *On Oq* (“Oʻn oʻq/qabila”) yoki *On Oq budun* (“Oʻn qabila xalqi”) iboralari ishlatilib,

hukmdorlari *On Oq qağani* (“O‘n o‘q xoqoni”) tarzida tilga olinadi.[3, b. 40 – 41].

Xoqonlar Sheguy va Tun yabg‘u davrlarida G‘arbiy Turk xoqonligi vaqtinchalik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Shaguy G‘arbiy xoqonlikning sharqiy chegaralarini Oltoy qilib belgiladi va o‘z hokimiyatini Tarim havzasi hamda Sharqiy Pomir oldigacha kengaytirishga muvaffaq bo‘ldi. Tun yabg‘u (Tun Bahodir) xoqonlikning g‘arbiy hududlarida faol siyosat olib borib, xoqonlikning qishki qarorgohini Chu daryosi vohasidagi yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lgan Suyobga (hozirgi To‘qmoq yaqinidagi Oqbesim ko‘hna shahri), yozgi qarorgohini esa Isfijob yaqinidagi Mingbuloqqa (hozirgi Turkiston shahri yaqinida) ko‘chiradi. Tun yabg‘uning yangi yurishlari tufayli xoqonlik chegarasi Amudaryoning yuqori oqimlaridan Hindiqushgacha cho‘ziladi.[4,b. 188 –189].

To‘n yabg‘u hukmronligi davrida amalda mustaqil bo‘lgan O‘rta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat o‘rnatiladi. Chunki bu davlatlarning vassalligi faqat o‘lpon to‘lash bilan chegaralangan edi. Isfijobdan Toshkent vohasigacha, shimolda Janubiy Afg‘oniston va shimoli-g‘arbiy Pokistongacha bo‘lgan hududlarga xoqon To‘n yabg‘uning ishonchli vakillari — tudunlar yuborilib, ular soliqlar yig‘ish va xoqon qarorgohiga yuboriladigan o‘lponlarni qattiq nazoratga oldilar. Mahalliy hokimlarga ularni xoqonlik ma‘muriy boshqaruviga qo‘shilganlik ramzi sifatida turk unvonlari berildi. Shu bilan birgalikda To‘n yabg‘u nisbatan kuchli bo‘lgan mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Manbalarda To‘n yabg‘uning Samarqand hokimiga o‘z qizini xotinlikka berganligi haqida ma‘lumot bor. Xitoy manbasi To‘n yabg‘u haqida ma‘lumot berar ekan, shunday xabar beradi: “G‘arb varvarlari hali hech qachon bunchalik qudratli bo‘lgan emas.”[5, b. 136].

G‘arbiy xoqonlikda ko‘chmanchi aholi “o‘n o‘q qabila ittifoqi” shaklidagi harbiy-ma‘muriy tizim joriy etilgan bo‘lib, har bir o‘n minglik

qo'shin yetishtiruvchi "o'q"ka "ulug' yo'l boshchi" (shad) rahbarlik qilgan. O'sha davrdagi xitoy manbasida yozilishicha: "Sharqiy tomonda Dulu ning besh qabilasi nomlanib, ularning boshiga beshta ulug' ch'yr qo'yilgan. G'arbiy tomonda esa besh Nushibi qabilasi atalib, ularga besh ulug' erkin rahbarlik qilgan. Keyinchalik har bir 'o'q' qabila sifatida yuritilib, ularning rahbarlariga ulug' yo'l boshchi unvoni berilgan. Dulu ning besh qabilasi Suyobdan sharqda istiqomat qilsa, Nushibining besh qabilasi Suyobdan g'arbda yashagan." VII asrda Sharqiy Turk xoqonligidagi "o'n o'q" tizimi ikki konfederatsiya — "Tolas" va "Tardush" (sharqiy va g'arbiy qanot)ga bo'lingan "o'n ikki qabila" tizimiga almashtiriladi. Har bir mulkning harbiy sarkardalari qo'l ostida jangovar harakatga layoqatli chokarlari bo'lgan. Bu maxsus gvardiya nafaqat tan qo'riqchi, balki dehqon va savdogarlarning mulklari hamda savdo karvonlarining himoyachilari ham bo'lishgan. [7, b. 126]

Turk xoqonligi tarixda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda ilk yirik turkiy davlatlardan biri sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. U qisqa vaqt ichida keng hududlarni birlashtirib, siyosiy, harbiy va madaniy jihatdan kuchli saltanatga aylangan. Xoqonlik Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo yo'llarini nazorat qilib, Buyuk Ipak yo'li rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ichki nizolar va tashqi bosimlar natijasida keyinchalik ikkiga bo'lingan bo'lsa-da, Turk xoqonligi turkiy xalqlar davlatchiligi tarixida muhim poydevor bo'lib xizmat qilgan va keyingi davlatlar shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Asqarov A. va boshqalar. *O'zbekiston tarixi*. 1-jild. – T.: Ma'naviyat, 2023. – 456 b.
2. Azamat Зиё. *Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар)*. Масъул муҳаррир: Б. Ахмедов. – Т.: Шарқ, 2000. – 368 б.



3. Бобоёров. Ғ. Турк ҳоқонлигининг давлат тузуми. – Т.: Yangi nashr, 2018. – 356 б.
4. Eshov B. *O'zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi*. – Т.:2012. – 426 б.
5. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. *Ўзбекистон тарихи*. I жилд. – Т.: 2014. – 489 б.
6. Murodova D.H. *O'zbekiston hududidagi ilk o'rta asr davlatlari: eftaliylar davlati va Turk xoqonligi*. – Т.: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2011. – 66 б.
7. Самаров Р.С. ва бошқалар. *Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи)*. – Т.: Маънавият, 2023. – 458 б.
8. Shamsutdinov R., Karimov Sh. *Vatan tarixi*. 1-jild. – Т.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 б.

